

ESTRADA XONANDASINING KUYLASH USLUBIYOTI

Qurbonova Mohigul Shoniyozovna

Qarshi davlat universteti, Musiqiy ta'lim kafedrası katta o'qituvchisi

E-mail: mokhigul.kurbanova@bk.ru

ANNOTATSIYA

Maqolada estrada janri zamonaviy o'zbek musiqasining tarkibiy qismi ekanligi hamda qisqa muddat ichida respublikamizning hozirgi zamon madaniyati tizimida muhim o'rni shakllanganligi e'tirof etilgan. Mazkur janr hozirda yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga bevosita katta ta'sir o'tkaza oladigan ma'naviyat sohasiga aylanib borayotganligi haqida muallif tomonidan fikrlar keltirilgan.

***Kalit so'zlar:** Estrada, diklamatsiya, talaffuz, ijro madaniyati, ruhiyat, artistik mahorat, musiqiy san'at.*

АННОТАЦИЯ

В статье признается, что эстрадный жанр является составной частью современной узбекской музыки и за короткий промежуток времени занял важное место в современной культуре нашей республики. Автор указывает, что данный жанр в настоящее время становится духовной сферой, способной оказать непосредственное влияние на воспитание подрастающего поколения.

***Ключевые слова:** эстрада, декламация, произношение, исполнительская культура, одухотворенность, художественное мастерство, музыкальное искусство.*

ANNOTATION

The article acknowledges that the pop genre is an integral part of modern Uzbek music and in a short period of time has taken an important place in the modern culture of our republic. The author points out that this genre is currently becoming a spiritual sphere that can have a direct impact on the upbringing of the younger generation.

***Key words:** stage, recitation, pronunciation, performing culture, spirituality, artistic skill, musical art.*

Estrada tushunchasi – lotincha tomosha ko'rsatish uchun maxsus ko'tarilgan joy, ya'ni sahna ma'nosini anglatadi. Ma'lumki, XX asr o'zbek musiqa san'atida keskin yangilanishlar davri bo'ldi, "noan'anaviy" bastakorlik ijodiyoti hamda yangi

konsert shakllari yuzaga keldi. Shu munosabat bilan musiqiy madaniyatga ham “estrada” tushunchasi kirib keldi.¹

Zamonaviy o‘zbek musiqasining tarkibiy qismiga aylanib ulgurgan estrada sohasi qisqa muddat ichida shakllandi va ma’lum natijalarga erishdi. Darhaqiqat, milliy estrada sohasi eng navqiron san’at turlaridan biri bo‘lsada, respublikamizning hozirgi zamon madaniyati tizimida muhim o‘rin tutmoqda va hozirda yosh avlod ta’lim-tarbiyasiga bevosita katta ta’sir o‘tkaza oladigan ma’naviyat sohasiga aylanib bormoqda. Qo‘shiqchilik san’atida bilim hamda amaliy unsurlar alohida o‘rin egallaydi. Unda she’r matni, musiqa, diklamatsiya, talaffuz, ijro madaniyati, ruhiyat mujassamlangan bo‘lib, ijrochilik amaliyotida katta ahamiyat kasb etadi. Musiqiy tovushlarni ma’noli, his-tuyg‘ular orqali mukammal tarannum etishga eng avvalo inson ovozi qodir.

Xonanda ovozida tovush kuchi, balandligi, qattiqligi va barchasini uyg‘unligida hosil bo‘ladigan temбри mavjud. Tovushlar, obrazlar ijrochiga ijro usuli yo‘lini ko‘rsatadi. O‘zbek estrada xonandalik san’atida shu bilan birga ko‘rinishga ega bo‘lmagan, lekin his etishda anglanadigan ovoz tarovati, dardi, bezagi bor bo‘lib, to‘laqonli ma’noga ega bo‘lgan ovozni tashkil etadi. Musiqani his qila olish tuyg‘usi, kuylash texnikasi bilan bir vaqtda rivojlanishi kerak. Texnika musiqiy material asosida ko‘rilmog‘i lozim. Talabada musiqani his etish va artistik mahoratni rivojlantirish, musiqiy tilni tushunishni o‘rgatish, ularning ijodiy fantaziyasini uyg‘otish o‘qituvchining vazifasi.

Qo‘shiqchilik san’ati deb, tinglovchilarning estetik talablariga javob bera oladigan san’atni atash mumkin. Qo‘shiq kuylash – musiqiy san’at, shuning uchun ijrochida musiqani eshitish qobiliyati va musiqiy ovozga ega bo‘lishi zarur.

Musiqiy ovoz apparati asoslari tibbiyot va fiziologiya tomonidan aniq belgilanadi. Har qanday musiqiy ovoz o‘z tembriga, ya’ni o‘z musiqiy rangiga ega. Tembr ovoz apparatining ovoz bo‘g‘imlari (paylari) tuzilishi (ular musiqiy asbob torlari kabi baland va past tembrdagi tovushlarni hosil qiladi), tabiiy bo‘shliqlar – burun-xalqum, peshana (manglay) bo‘shlig‘i, gaymor bo‘shlig‘i (yuqori jag‘ suyagining burun bo‘shlig‘iga tutash bo‘shlig‘i), qattiq tanglay, ko‘krak tuzilishi singari fiziologik xususiyatlariga bog‘liq. Qo‘shiqchining o‘z ovozini boshqarish qobiliyati rassomni ranglar jilosidan keng foydalana olish mahoratiga teng.

Kuylashni o‘rganmoq – bu nafasni va musiqiy xissiyot va kechinmalarni boshqarmoq degani. Axir nafas ruxiy kechinmalarga tobe bo‘lsa, xis-tuyg‘ular ham nafasga bo‘ysunadi. Shu bois xonanda beixtiyor hayajonli va hotirjam holatni hosil

¹ Umarov M. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi. T.: “Yangi asr avlodi”. 2009 y. 185 –bet.

qilib, kuyni, nutqni va kayfiyatni unga itoat qildirishi mumkin. Aktyor va xonandalarda kasbga bog‘liq bo‘lgan “tayanch, tirgak” termini mavjud. “Tayanchli” yoki “tirgakli” ovoz – bu aniq, jarangdor ovoz. “Tirgak nafas” – bu nafasning nihoyatda chuqurligi. U nafas olish tizimi devorlariga tayanadi. Agar biz ongli ravishda to‘g‘ri nafas olib, uni ushlab tursak, qolgan hamma narsani bizning kuylash sezgirligimiz amalga oshiradi. Unga fikrimiz va harakatimiz yordam bera oladi. Tovush manbai - ovoz paychalaridir. Tovush chiqishi uchun, ular tutashmog‘i lozim. Kuylaganda ularni tebratayotgan havo oqimi – nafas yo‘llaridan bo‘g‘izga keladi. Bu xarakterlarning ikkisi boshqarilmaydi. Ammo o‘pka poydevorga suyangan kabi diafragma (ko‘krak pardasida) yotadi va ular bir-biriga bo‘ysunadi. Musiqa uch o‘lchovga ega – balandligi, tembri va kuchi. Har bir pardaning balandligi aniq bo‘lishi uchun ijrochi ovoz qatlarini tutashishiga ko‘maklashib, tembrni begona tovushlardan xalos qilmog‘i kerak. Diapazonga kelsak, yuqori pardalarni ijro etishda qorin muskullari va diafragma, pastki pardalarda esa ko‘krak mushaklari faol qatnashmog‘i lozim.

Yana shuni ham takidlash joyizki, inson diafragmani seza olmaydi. Biroq, biz qorin mushaklarini his etamiz va to‘g‘ri, bizga qulay bo‘lgan tarzda nafas olib - chiqarishda o‘zimizga yordam beramiz. Imkon qadar erkin turib, yelkani tushirib, bo‘yinni bo‘sh qo‘yib, oyoqlarda mustaxkam tayanchni sezib, bir oz jilmaygan holda tishlar orasidan bir oz havo chiqaring. “S” tovushi hosil bo‘lishi kerak. Endi xuddi shu mashqni, faqat qorin xarakati bilan bajaring. Mashqlar oldidan yelkalarini ko‘tarmasdan, erkin holda nafas olish kerak. Tana va ayniqsa qorin mushaklarini his qilganingizdan so‘ng, kuylashingiz mumkin.¹

Ko‘krak va bosh rezonatorlari. Butun diapazon davomida ko‘krak va bosh rezonatorning ishlashi bu ovozning yaxshi va to‘g‘ri qo‘yilgani xisoblanadi.

Ovoz bosh rezonatorga yo‘naltirib kuylanganda tovush yorqin, baland, eshitiladi. Ko‘krak qism rezonatorida kuylaganda - boy va “go‘shli” yangraydi. Doim sadolanishda bosh va ko‘krak rezonatorlari uyg‘unligiga erishishga xarakter qilish kerak. Shunday holatlar bo‘ladiki, siz esnamoqchi bo‘lasiz va buni og‘zingizni ochmasdan, atrofdagilarga bildirmay qilasiz. U holda og‘zingizda gumbaz paydo bo‘ladi. Tovushning to‘g‘ri chiqishida peshonangiz atrofida va yopiq lablarda tebranish his qilasiz. Bu degani, hammasi to‘g‘ri amalga oshirildi. Tovush faqat boshingizdagi “bo‘shliq”da aks-sado - degan ma‘noni anglatadi. Odatda, falset-xonandaning tabiiy ovoz imkoniyatlaridan kelib chiqaruvchi sun‘iy ovozdir. Bu usul G‘arb musiqa madaniyatida, akademik vokal ijrochiligida keng va ma‘lum tartibda qo‘llaniladi. O‘zbek musiqa talqinida falset o‘ziga hos shaklda ishlatiladi. Ayrim

¹ H. H. Hulbert. Breathing for voice production. Presented to the university of Toronto library by the ontario legislative library 1980. 7-10, 16-18b.

xonandalar ashulaning avj qismlarini, eng yuqori pardalarni tabiiy ovozda ijro eta olmaydilar va ana shunday hollarda falset ovoz bilan kuylaydilar. Falset ijro usulini qo'llashda xonanda ustalik bilan, ovoz almashish omilini mohirona bajarishi lozim. Uning mohirligi-tabiiy ovozdan sun'iy ovoznining farqini ijro jarayonida sezdirmasligi va usuldan oqilona foydalanishida namoyon bo'ladi. Kuylashni boshlamay turib, talaba gavdasi rostlangan, qorin tortilgan, ko'krak bir muncha ko'tarilgan, bel va yelkalar tekis bo'lishi kerak. Ovoz tayanchi xonandaga o'z ovozdin erkin va qiyinchiliksiz foydalanishiga sharoit yaratib beruvchi eng asosiy hisdir.

Ovoz tayanchi ovoz hosil qilishning to'g'ri bo'lishini ta'minlovchi murakkab his. Bu his aniq va turg'un bo'lganligi uchun tayanchli deb ataladi. Tovush tayanchi tushunchasiga: ovoz paylari pastki qismi bosimini ko'tarish, nafas, xiqildoq mushaklari va vibratsion hisning taranglashishi kiradi. Talabada mashg'ulotlar boshida tayanch hisi bo'lmaydi. Vaqt davomida tayanch hisi paydo bo'la boshlaydi. Tayanch hisi kuylayotgan vaqtda o'ziga ishonchni tug'diradi va ovoz hosil qilishni qulaylashtiradi. Bu hisni topish va rivojlantirishga intilmoq kerak.¹

Keyingi qadam, qo'shiqchining diapazoni (ovozining kengligi) bilan tanishuv. Anig'ini aytganda, qo'shiqchi o'zining diapazoni bilan tanishadi, chunki ba'zan kuylashni o'rganayotganlar o'z qobiliyatini bilmaydilar. Ba'zida ijrochilar o'tkinchi notalarni berkitib kuylamoqchi bo'lib, ovozni zo'riqtirib qo'yadilar. Bunday holatda tovush o'zining tabiiy rangini yo'qotib, falsetga o'tib ketadi. Ijrochi ovozining barcha xususiyatlarini bilish uchun, o'tkinchi notalarni ijro etishdan cho'chimasligi kerak. O'tkinchi notalar istisnosiz hammada mavjud. Ularni ijro etishda ovozni zo'riqtirmaslik alohida ahamiyatga ega.

Shunday qilib, ko'krak, bosh registr va falsetni puxta egallab, tembrni tekislab, o'ziga hos ohangni topish mumkin. Bundan so'ng repertuar ustida ish olib borish mumkin. Tanlangan material o'rganayotgan ijrochi uchun murakkab bo'lmasligi zarur va shu bilan birga, xonanda asarni ijro etish jarayonida mas'uliyatni his eta bilishi kerak. Vokal san'atida nafas muhim rol o'ynaydi. Nafas nafaqat ovozni tug'ilishini, balki uning kuchini, dinamik nyuanlarini, tembr va balandligini belgilaydi. Kuylash jarayonida nafas tovush paychalariga moslashishi kerak. Nafas ashula bilan bog'liq bo'lishi ijrochi uchun muhim. Qo'shiq kuylashda asosiysi nafas kuchi o'pkadan keladigan havo miqdori emas, balki qo'shiq davomida nafasni ushlab va to'g'ri taqsimlash, ovoz apparatini boshqa komponentlar bilan ishlashidir.

¹ FUNDAMENTALS OF VOCAL PEDAGOGY AND APPLICATIONS FOR CONDUCTORS NOT TRAINED IN SINGING. Patrick Michael Walders, Doctor of Musical Arts, 2005. Directed By: Dr. Edward Maclary, College of Arts and Humanities. 176.

Repertuarni belgilashda faqat o'quv vazifasigina ko'zda tutilmasligi kerak. Repertuarning mazmuniga ham alohida e'tibor qilish lozim bo'ladi. Repertuar tarbiyaviy ahamiyat, ya'ni Vatanga mehr-muhabbat tuyg'ularini uyg'otish, insoniylik fazilatlarini tarbiyalashga qaratilishi lozim. Talabalarning estrada yo'nalishi bo'yicha professional tarbiyasi-bu qo'shiqchilik malakasiga hos barcha qoidalarni amaliy o'zlashtirish, nafas ravonligi, badiiy ifodani aniqligi, malakali ijro ko'nikmalarini amalda namoyon etishni anglatadi.

Xonanda tarbiyasidagi muhim jixatlardan yana biri bu talabani individual ovoz imkoniyatlaridan kelib chiqilgan holda o'qitish va shunga monand repertuar tanlashdir. Talabani o'zlashtirish darajasiga qarab ijro etish ko'nikmalarini hosil qilishi texnik va badiiy vazifalarning o'zaro birlashtirish, oddiylikdan murakkablikka o'tish ketma-ket va asta-sekin o'sishlik prinsiplarini ro'yobga chiqarish lozim bo'ladi va so'ng shularni inobatga olgan holda o'quv repertuari tanlanadi. O'qituvchi talabani ovoz xususiyatlarini aniq belgilay olgandagina uning ovoz taratish yo'llariga ziyon yetkazmay, aksincha ularni rivojlantirish imkonini oshirib borishi darkor. [9]

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, har bir asar ma'lum maqsadlarni amalga oshirishni ko'zda tutib tanlanadi. Qo'shiqni tanlashda oddiydan murakkabga qarab borish tamoyiliga rioya qilinadi. Unda har bir yangi asar oldingisidan hosil etilgan vokal malakalarini mustaxkamlaydi va ularni rivojlantiradi. Qo'shiqni quyidagi talablarga ko'ra tanlash tavsiya etiladi: tarbiyaviy ahamiyati, xarakteri, badiiy yuksakligi, garmonik tuzilishi, shakli, necha qismdan iboratligi, lad va tessitura talabani ovoz diapazoniga mosligi. Mazkur talablarga amal qilgan holatda ijro yo'nalishiga etibor qilinsa, ko'zlangan natijaga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. D.Omonullayeva. Estarada xonandaligi. Toshkent-2007 y.
2. M.Umarov. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi. 2009y.
3. B.V. Shamaxmudova. Xor lug‘ati. 2009 y.
4. S.Mirvaliyev. Rixsiya Shokirova. O‘zbek adiblari. 2007y
5. N.A.Mirzayeva Xonandalik uslubi asoslari. Ma’ruzalar matni. Toshkent. 2008. 17-18 b.
6. Cathrine Sadolin. Complete vocal technique. 2012. [www. Completevocalinstitute.com](http://www.Completevocalinstitute.com) 16b.
7. American popular music. Larri Star & Christopher Waterman. Oxford University Press. Inc. 2007. 57-88 b.
8. H. H. Hulbert. Breathing for voice production. Presented to the university of Toronto library by the ontario legislative library 1980. 7-10, 16-18b.
9. Murodov Mukhitdin Kadyrovich 2021. The role of independent learning in the formation of professional skills of future music teachers in the system of continuing education. *International Journal on Integrated Education*. 4, 4 (Apr. 2021), 149-152